

Tuxtanzarova Gulnoz Abduvaxob qizi

Andijon davlat universiteti Filologiya fakulteti Qirg'iz tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Chingiz Aytmatovning hayoti va ijodi, uning «Somon yo'li» qissasi, Chingiz Aytmatov ijodida insoniyat tarixidagi qurolli qirg'inlarning xalq boshiga solgan cheksiz jafolari, urushning dog'ini ko'rgan, "xalq dushmanining bolasi" deya tahqirlanganligi haqida batafsil bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *stalinizm, tragediya, nasriy asar, «Somon yo'li» qissasi, nufuzli anjuman, qurolli qirg'in.*

Kirish:

Chingiz Aytmatov dunyo adabiyoti tarixini serma'no sahifalar bilan bezagan, badiiy so'z maqomini cho'qqi qadar yuksaklarga ko'targan bu mashhur adib hayoti va ijodi bilan tanish bo'lmagan kitobxonni topish kiyin bo'lsa kerak. Buning boisi yozuvchi qalamiga mansub hikoya, roman va qissalar, chuqur mushohadali badiiy, ijtimoiy publitsistik maqolalar, nufuzli anjumanlardagi mag'zi to'q, ma'naviy yuki salmoqli ma'ruzalar, do'st-yoronlarga yo'llangan maktublar hech kimni befarq qoldirmaydi.

Chingiz To'raqulovich Aytmatov XX asr qirg'iz adabiyotining eng iste'dodli va jahonga tanilgan yirik namoyandalaridan biri bo'lib, u 1928 yil 12 dekabrda Qirg'izistonning Talas vodiysidagi Shakar ovulida tug'ilgan. Bobosi Aytmat og'a ajoyib qo'buzchi, otasi To'raqul Aytmatov davlat va jamoat arbobi, onasi Naima opa o'qimishli, oqila ayol edi. Chingiz dastlab rus maktabida, keyin qirg'iz maktabida o'qidi, qishloq sho'rosida kotib, soliq yig'uvchi, brigada hisobchisi bo'lib ishladi. Chingiz Aytmatov bolaligidanoq badiiy adabiyotga ulkan mehr qo'ygan bo'lib, nasriy asarlar yaratish bilan astoydil shug'ullanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Chingiz Aytmatov "Jamila", "Momo yer", "Erta kel gan turnalar" kabi o'lmas asarlarida urushni bor ovozi bilan la'natlaydi. Buni, masalan, «Somon yo'li» qissasida ham ko'rish mumkin. Asarda urushning jamiki dahshatlari g'oyat ishonarli, ta'sirchan, ayni chog'da sodda til bilan ochib berilgan. Urush. Ovuldagi kuliga miltiq ushlashi mumkin bo'lgan erkaklarning bari frontga ketgan. ayadi, «xudoni xam unutib yuboradigan vaqt boshlanadi.

Asar qahramoni Tulg'anoy bir emas, to'rtta farzadini frontga jo'natadi, ayol boshi bilan xo'jalikka rahbarlik qiladi. Uyma-uy yurib, bir kilo, yarim kilodan urug'lik yig'adi. «Aylanaylar, chaynab turganlaringni, tishlaringni orasidagini bo'lsa xam beringlar, yerga sepaylik, bir amallab pishiqchilikka yetib olsak bo'ldi», deydi. Qo'shnisi

- kasalmand Oyshaning uyiga kirib, undan xam urug'lik so'raydi. "Ikki-uch kundan beri og'rig'i zo'rayib, uyda yotgan ekan, dardning zo'ridan ranglari siniqib ketibdi.

Shunday azobda yig'ilgan g'allani o'g'rilar urib ketishadi. To'lg'anoy zim-ziyo tunni, yeru ko'kni larzaga solib: "To'xta! To'xta, yuzi qoralar!" deya hayqirib, o'g'rilarining ortidan ot soladi. "Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori"da yosh Chingiz - oilaning to'ng'ich farzandi, sigirlarini o'g'irlagan o'g'rildan qanday o'ch olishga qasd qilgani haqida hikoya qilinadi: "...boshimizga tushgan kulfat uchun o'ch olmog'im, kurashmog'im lozim edi. O'sha paytdagi tushuncham bo'yicha faqat bir narsa kulimdan kelardi: o'g'rilarni o'ldirish kerak, vassalom!

Natijalar:

Chingiz Aytmatov ijodida insoniyat tarixidagi qurolli qirg'inlarning xalq boshiga solgan cheksiz jafolari, butunlay qirilib ketgan ko'pdan-ko'p elatlarning ayanchli taqdiri tafsilotlari xam o'z aksini topgan. Muhimi, adib bu mavzuda kalam tebratgan boshqa xam kasblari singari, urushning moddiy yo'qotishlari qancha odam o'lgani, qanchasi yarador bo'lgani yoki bedarak yo'qolgani, qancha shahar va qishloqlarning kuli ko'kka sovurilgani, qancha bino, qishloq va shaharlar vayron etilgani, ko'priklar,temir yo'llar, muhim inshootlar buzib tashlanganini tasvirlashdan ko'ra, bu qatlamning inson ruhiyati va ma'naviy qalamiga ta'siri haqida mulohaza yuritishni ma'qul kuradi. Adibning "Yuzma-yuz", "Oq kema", "Somon yo'li" povestlarida ayni shu holatni kuzatish mumkin. Yozuvchining bolalik xotiralarida urush yillari Shaker ovulida pochalyonlik qilgani va solik yig'uvchi "finagent" bo'lib ishlagani juda ta'sirchan ifodalangan "Ovuldand biror oilaga qoraxat kelsa, oqsoqollar oldiga borib, ularga tushuntirar edik. deb yozadi adib. - Ular avval halok bo'lgan kishining qarindoshlarini chaqirib, bo'lgan voqeadan xabardor qilib, o'zaro maslahatlashgach, so'ng meni ergashtirib, marhumning uyiga borishardi. Men oila a'zolariga qoraxatni o'qib berardim. Ovulimizdagilar meni yaxshi tanishardi. Ular menga yomonlikni ravo ko'rishmasdi, kimgadir qoraxatni topshirmoq, o'limning sovuq xabarini yetkazmoq zimmamga yuklangan vazifa ekanini tushunishardi.

Muhokama:

Urushning dog'ini ko'rgan, "xalq dushmanining bolasi" deya tahqirlangan, bolaligi azob-uqubatlarga to'la Chingiz Aytmatovning ayni shu mavzuda yozgan maqolalarida o'sha zamondan oshkora nolish deyarli sezilmaydi. O'ttiz yettinchi yilning fojialarini ko'p bor eslaydi, badiiy asarlarida g'oyat ta'sirchan qilib tasvirleydi, ammo ayrim mualliflar kabi "Meni xo'rlashgan, og'ir azoblarga duchor qilishgan", deya o'zini qahramon qilib ko'rsatmaydi. Bunga intilmaydi ham. Hattoki, yuqorida keltirilgan maqolasida hech bo'lmaganda: "Otam leninchi edi, partiyaning topshirig'ini bajarib yashadi, ammo shunday odamni ham ayab o'tirishmadi", degan jumlaning ham uchratmaymiz. Faqatgina "Somon yo'li" povesti boshlanishidagi epigrafdagi: "Ota, men senga yodgorlik o'rnata olmadim. Sening qayerga dafn etilganingni ham bilmayman. Ushbu asarimni, otam To'raqul Aytmatov, senga bag'ishlayman. Ona, sen bizni

ulg'aytirib odam qilding. Sening uzoq umr ko'rishingni tilab, onam Naima Aytmatova, senga bagishlayman", degan so'zlarni o'qish mumkin.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Chingiz Aytmatovning yana bir mohir tarjimoni adabiyotshunos olim Ibroxim G'afurov o'zbek kitobxonlariga qirg'iz adibining «Qiyomat», "Kassandra tamg'asi», «Qulayotgan tog'lar» asarlarini taqdim etdi. I. G'afurovning yuksak mahoratli tarjimon, ayni chog'da Chingiz Aytmatov ijodining bilgich va to'lmas targ'ibotchilaridan biri hamdir. «Aytmatov asarlari inson tragediyalariga to'la, - deb yozadi tarjimon. Ular tragediyaga uchragan beguborliklardir. Agar bu hodisalar beg'uborlik bo'lmasaydi, ular fojialarga uchramasdi. Aytmatov qahramonlari uchragan tragediyalarning bosh manbai stalinizm yaratgan tarashaday hissiz va shafqatsiz partiya byurokra tizmidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I. A. "Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor". - T., "O'zbekiston", 2009.
2. Akmataliyev A. Aytmatov ensiklopediyasi (Qirg'iz tilida). 1-tom. - Bishkek, "Ilm", 1993.
3. Sadikov N. "Aytmatovni o'rganish ilmining Qirg'izistonda yuzaga kelishi va rivojlanishi" (qirgiz tilida) - Bishkek, 1992.
4. Chingiz Aytmatov. "Bolaligim". Voqeaviy qissa Tarjimon Nurali Kobul. - T., G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.
5. Rashidov A. Chingiz Aytmatovning badiiy olami. - T., "O'qituvchi", 2008.